

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAKTABGACHA PEDAGOGIKA**  
fanidan

**Kurs ishlarini tayyorlash  
bo‘yicha**

**USULIY KO‘RSATMA**

*(5111800-Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi  
III kurs talabalari uchun)*



**BUXORO- 2020**

### **Annotatsiya**

Mazkur uslubiy ko'rsatma 5111800- maktabgacha ta'lim ta'lim yo'nalishi talabalari uchun «Maktabgacha pedagogika» fanidan kurs ishlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil 7 martdagi 61-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. "Oliy ta'lim muassasalarida kurs ishisini bajarish tartibi haqida NIZOM" asosida ishlab chiqilgan. Talabalar maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy, jismoniy, aqliy – axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik ta'limini amalga oshirishning metod va vositalari, O'zbekistonda ijtimoiy maktabgacha ta'limni tashkil etishning asosiy bosqichlari, asosiy xususiyatlari va maktabgacha ta'lim bo'yicha yuqori malakali rahbar, metodist-nazoratchi va tarbiyachilarni tayyorlash vazifalari, metodlari, xalq ta'limi bo'limining asosiy vazifalari, metodik rahbarlik qilish tamoyillari kabi masalalar bo'yicha kurs ishi tayyorlaydilar.

Uslubiy ko'rsatmada "Maktabgacha pedagogika" fanidan talaba tomonidan tayyorlanadigan kurs ishida e'tibor berishi zarur bo'lgan jihatlar yoritilgan, egallashi zarur bo'lgan bilimlarni amalda o'rganish va tahlil qilish nazarda tutilgan.

#### **Tuzuvchilar:**

**Nigmatova M.M.** – Buxoro davlat universiteti " Maktabgacha ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

B. R. Adizov- BuxDU huzuridagi XTXQT va UMOHM mintaqaviy markazi direktori  
Pedagogika fanlar doktori, professor,

Z.Umurov- Buxoro davlat universiteti ,boshlang'ich talim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, falsafa fanlari doktori, PhD

Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnikaviy kengashning 2020 yil 3 iyundagi 8-sonli kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

. © BuxDU «Maktabgacha ta'lim» kafedrasida

## Kirish

Hozirgi vaqtda oliy ta'limni qayta qurish, uni ishlab chiqarish bilan yanada ko'proq yaqinlashtirish ishlari olib borilayotgan bir sharoitda fan va nazariyaga asoslangan bilimga, amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila borishga layoqatli mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston respublikasi o'zining ta'lim sohasidagi siyosatida oliy va o'rta maxsus muassasalarda mutaxassislar tayyorlash mazmunini xalqimizning uzoq muddatli ehtiyojlari bilan, respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish vazifalari bilan muvofiq holga keltirishni ta'limning xilma-xil shakllari va usullari yordamida yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun sharoit yaratishni dolzarb vazifalardan biri deb hisoblanmoqda.

Shunday ekan, mutaxassislik fanlardan tayyorlanadigan kurs ishlari ham bo'lg'usi mutaxassislar tayyorlashda asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Talabalarning maktabgacha pedagogikaga oid bilimlarini o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash ko'nikmasi tufayli talabalar maktabgacha pedagogikadan mukammal bilim oladilar. Talabalar kurs ishlarini tayyorlashda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Kurs ishi talaba faoliyatining muhim va murakkab shakllaridan biri bo'lib, u yoki bu kursga oid bilimlar tizimini mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi ish turi hisoblanadi. Kurs ishi yordamida talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari ilmiy-metodik fikrlash, belgilangan mavzu yuzasidan bilganlarini izchil bayon eta olish ko'nikmalari nazorat qilinadi.

Kurs ishi yozayotgan talaba mavzuni mukammal yoritishi, mavzuga oid adabiyotlarni o'rganganligini ko'rsata olishi, mustaqillikga amal qilishi, asosiysi tegishli amaliy tavsiyalarni ifodalay olishi zarur.

Kurs ishi bevosita kafedra tomonidan biriktirilgan ilmiy rahbar nazorati va yo'llanmasi asosida amalga oshiriladi.

Ilmiy rahbar kurs ishi bajarilishi jarayonida tegishli ilmiy-metodik maslahatlar beradi. Kurs ishi yozib tugatilgach dekanatga topshiriladi. Dekanat ro'yxatdan o'tkazib rahbarga topshiradi. Rahbar 10 kun mobaynida tekshirib, kafedrada himoya qilishga topshiradi. Kurs ishi quyidagi qismlardan tashkil topadi.

- muqova
- mundarija
- kirish
- asosiy qism
- xulosa

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>Kurs ishining maqsadi.....</b>	<b>4</b>
<b>Kurs ishining asosiy vazifalari.....</b>	<b>5</b>
<b>Kurs ishlari mavzulari .....</b>	<b>6</b>
<b>Kurs ishini tashkillashtirish.....</b>	<b>8</b>
<b>Kurs ishidan namuna.....</b>	<b>9</b>
<b>Kurs ishi taqdimotidan namuna.....</b>	<b>53</b>